

MUSTAQILLIK DAVRIDA NASR, SHERIYAT VA
DRAMATURGIYA CHILONZOR TUMAN 1-SON POLITEXNIKUMI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14984861>

Rahmonova Zohida Kuchkarovna

Tili Va Adabiyot Fani Katta O'qituvchisi

E-pochta: raxmonovazohida@gmail.com

Anatatsiya

Ushbu tezisda XX asrning boshlarida jadidchilar tomonidan asos solingan o'zbek dramaturgiyasi tarixi, ma'rifatparvar jadidchilarning teatr rivojiga qo'shgan salmoqli hissalar hamda hozirgi zamon dramaturgiyasining rivoji haqida fikr-mulohazalar yuritiladi, hamda zamonaviy o'zbek she'riyatida shakl va mazmun jihatidan ro'y berayotgan o'zgarishlar, yaratilayotgan she'rlarning janriy xususiyatlari, yangi paydo bo'lgan she'riy shakllarning genezisi, rivojlanish shartlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar

adabiy tur; vazn va qofiya, o'zbek adabiyoti, nazm, nasr va dramaturgiya, jadidchilar, teatr.

XX asr oxirida birorta o'zbekistonni yodidan chiqmaydigan tarixiy voqea sodir bo'ldi, yani 1991-yil 1-sentyabrida o'zbekiston mustaqillikka erishdi. Barcha o'quv dargohlarida o'quv yilining birinchi kunida betakror bayramona kayfiyat hukm suradi. Demak o'sha voqelikdan keyingi davr adabiyoti "Mustaqillik davri adabiyoti" deb atalishi tabiiy sanaladi. Badiiy ijodning har bir yo'nalishi - nazm, nasr va dramaturgiya mohiyat e'tibori bilan mustaqillik davrining mavzulari bilan boyidi. Bu holat o'zbek adabiyoti tarixida yangi davr boshlanganidan darak beradi.

Nasr (arab. — ko'mak, zafar), **proza** — adabiy tur; vazn va qofiya singari she'riyatga xos unsurlarga ega bo'lmagan yozma nutq mahsuli. Yevropa xalqlari adabiyotida bo'lganidek, Sharq xalqlari adabiyotida ham nasr yozma nutq shakli sifatida she'riyatga nisbatan kechroq paydo bo'lgan nasr V-VIII-asrlarga oid Urxun-Enasoy yodgorliklarini turkiy xalqlar adabiyotidagi nasrning eng qadimiy namunalari, deb hisoblash mumkin nasr She'riyatning rivojlanishi "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib) va "Hibat ul-haqoyiq" (Ahmad Yugnakiy) kabi dostonlarning yaratilishi bilan birga X—XII-asrlarda Abdulmuayyad va Abuali Balxiylarning "Shohnoma", Abdulmuayd Balxiyning "Gershaspnoma", Homididdin Balxiyning "Makrmati Homidiy", Saidaddin Muhammad Av-fiy Buxoriyning "Javome ul-

hikoyot va lavome' ur-rivoyot" ("Hikoyalar to'plami va rivoyatlar yolqini") singari nasriy asarlari vujudga keldi. 14-asr boshlarida Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Navoiyning "Mahbub ul qulub" singari nasriy asarlari, ayniqsa, "Boburnoma"ning yaratilishi bilan o'zbek adabiyotida milliy nasrning asosiy qirralari nurlanib ketdi. Ammo shunga qaramay, hozirgi tushunchadagi nasrning taraqqiyoti bevosita XX-asr bilan – zamonaviy adabiyotning shakllanish va rivojlanish davri bilan bog'liq. Xuddi shu davrda tom ma'nodagi o'zbek badiiy nasr yaratildi va u adabiy tur sifatida o'z shoxobchalariga ega bo'ldi. XX-asr boshlarida vaqtli matbuotning paydo bo'lishi, gaz. va jurnal sahifalarida Cho'lponning "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadyor", Qodiriyning "Juvonboz", "Uloqda" singari hikoyalarining yaratilishi, Hamzaning "Yangi saodat", S. Ayniyning "Buxoro jallodlari", "Odina" qissalari, Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanining e'lon qilinishi bilan zamonaviy realistik o'zbek nasrni uzil-kesil shakllandi. Bu nasr mumtoz o'zbek adabiyotidagi nasrdan dastavval ijobiy va salbiy qahramonlar obrazi, syujet va kompozitsiyasi, badiiy konfliktga egaligi, hayotiy yoki afsonaviy-fantastik voqealarni muayyan badiiy til va uslubda tasvirlab berganligi hamda badiiy qonuniyatlarga to'la rioya etib yozilganligi bilan farqlanadi. Mustaqillik davrida o'zbek she'riyatining jahonga tanitilishi borasida tarjimonlarning roli ham kengaydi. O'zbek she'riyati xorijiy tillarga, xorijiy ijodkorlar esa o'zbek she'riyatiga qiziqish bildirib boshladilar. Bu jarayon ko'plab o'zbek shoirlarining asarlarini xalqaro muhitga olib chiqishga imkon berdi. Mustaqillik davrida o'zbek she'riyati faqat badiiy asar sifatida emas, balki xalqimizning ma'naviy hayotida, milliy g'urur va o'zlikni anglashda ham muhim rol o'ynadi. She'riyat orqali xalqimiz o'z tarixiy xotirasini, urf-odatlarini va an'analarini yangi avlodga yetkazishga harakat qildi.

Mustaqillik davrida she'riyatda yangi uslublar, shakl va janrlar paydo bo'ldi. Traditsion an'anaviy she'riyatdan tashqari, shoirlar zamonaviy uslubdan, badiiy tajribalaridan, shuningdek, xalqaro hisob-kitoblardan foydalandilar. Bu davrda ko'plab shoirlar proza hamda dramatik janrlarda ijod qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar, bu esa ularning ijodini yanada boyitdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yangi avlod shoirlari chiqib keldi. Ulardan ayrimlari o'z ijodida yangi g'oyalar, intilishlar va hissiyotlarni ifoda etishga muvaffaq bo'lishdi. Masalan, Jamol Kamol, Oydin Hojiyeva, Usmon Azim, Xurshid Davron, Mahmud Toir, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Bektosh Khosidov, Asqar Mahkam, Hamdam Said kabi shoirlar o'z asarlarida yoshlarning orzu-havaslarini va zamonaviy hayot muammolariga e'tibor qaratdilar. Mustaqillik davrida o'zbek she'riyatining jahonga tanitilishi borasida tarjimonlarning roli ham kengaydi. O'zbek she'riyati xorijiy tillarga, xorijiy ijodkorlar esa o'zbek she'riyatiga qiziqish bildirib boshladilar. Bu

jarayon ko'plab o'zbek shoirlarining asarlarini xalqaro muhitga olib chiqishga imkon berdi. Mustaqillik davrida o'zbek she'riyati faqat badiiy asar sifatida emas, balki xalqimizning ma'naviy hayotida, milliy g'urur va o'zlikni anglashda ham muhim rol o'ynadi. She'riyat orqali xalqimiz o'z tarixiy xotirasini, urf-odatlarini va an'analarni yangi avlodga yetkazishga harakat qildi.

O'zbek dramaturgiyasining paydo bo'lishi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimda xalq orasida turli bayram va sayllarda, marosimlarda turli tomoshalar tashkil etilgan. Bu tomoshalarda xalq orasida chiqqan qiziqchi-mas'harabozlar qiziqarli chiqishlar, sahna ko'rinishlari ijro etib, tomoshabinlarni xushnud qilishgan. Ular o'zlarining kulgili hangomalari, latifalari bilan xalq orasida og'zaki milliy dramaturgiyaga asos solishgan. Drama so'zi yunoncha so'z bo'lib, 'harakat' degan ma'noni anglatadi. Syujetlilik, harakatlarning ziddiyatga asoslanishi va ularning sahna, epizodlarga bo'linishi, bayonning yo'qligi, personajlar munosabatlarining o'zaro so'zlashuvga asoslanishi dramaning o'ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qahramonlarning xatti-harakatlarida, avvalo, dialog va monologlarda ifodalanadi. Drama matni ko'rishga (imo-ishora, harakat), shuningdek, eshitishga mo'ljallanadi; u sahnaviy makon, zamon va teatr texnikasi imkoniyatlariga ham muvofiq keladi. Drama adabiy asar sifatida aktyor, rejissyor tomonidan sahnada o'z talqinini topadi. Drama tufayli teatr san'ati yuzaga kelgan va u kino san'ati uchun ham asos bo'lgan. O'zbek dramaturgiyasi uzoq yillik, aniqrog'i bir asrlik boy tarixga ega. Mana shu bir asrlik vaqt orasidagi o'zbek milliy dramaturgiya faoliyatini ikki davrga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi davr, 1913-1990 yillarni o'z ichiga qamrab olgan salkam 80 yillik muddat. Ikkinchi davr, mustaqillik davri ya'ni 1991 va undan keyingi yillarni o'z ichiga oladi. Mustaqil yillarida boshqa sohalar singari o'zbek teatri hayotida ham yangi davr boshlandi. Istiqlol tufayli milliy merosga tayanib ijod qilish, milliy qadriyatlar, an'analarni tiklashga intilish jiddiy tus oldi. Bu davrda o'zbek teatrida ilg'or tendensiyalar, ijodiy izlanishlar ko'zga tashlandi, jumladan, teatrlar repertuarida tarixiy mavzuning salmog'i oshdi. Buyuk ajdodlarimiz – allomalar, shoirlar, davlat arboblari, lashkarboshilarning hayoti va taraqqiyot uchun kurashini yorituvchi o'nlab sahna asarlari yaratildi. Sahnalarda buyuk mutafakkirlar - Bahouddin Nashqband, Hakim at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Abdulla Avloniy, Behbudiy kabi allomalar, "Avesto" kitobi asosida Zardushtiy hayotini yorituvchi sahna asarlari vujudga kelib, davrimiz tomoshabinlari ma'naviyatini boyitdi, tarixiy, diniy e'tiqodga nisbatan qarashlarni o'zgartirdi. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar haqida yaratilgan 20 ga yaqin sahna asarlari ma'naviy va madaniy hayotimizda katta voqea bo'ldi. Shu yo'nalishda Alisher Navoiy asarlarini teatr sahnasida yangicha talqin etish

boshlandi. Jahon va milliy mumtoz dramaturgiya namunalarini zamonaviy talqin va vositalarda sahnalashtirish boshlandi. Navoiy, Shekspir, Molyer, Ayniy, Behbudiy, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy, G'afur G'ulom asarlarining sahnaviy talqinlari shundan guvohlik beradi. Shuningdek, sahna asarlarida etnografiya va folklor manbalari vositalaridan foydalanish butun bir uslubiy yo'nalish sifatida ko'zga yaqqol tashlanib, sahna san'atining milliy o'ziga xosligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa tariqasida shuni aytishimiz mumkinki, badiiy ijodning har bir yo'nalishi - nazm, nasr va dramaturgiya mohiyat e'tibori bilan mustaqillik davrining mavzulari bilan boyitdi. Bu holat o'zbek adabiyoti tarixida yangi davr boshlanganidan darak beradi. Mustaqillik davrida o'zbek she'riyatining rivojlanishi milliy identitetimizni (yani millatimizga mansubligimizni) mustahkamlash, madaniyatimizni boyitish va yosh avlodning fikrini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbek she'riyatining yangi yo'nalishlari, ijodiy yangiliklari va xalqaro aloqalari mamlakatimiz madaniyatini yanada boyitishda davom etmoqda. Biz kelajakda ham o'zbek she'riyatining rivojlanishini kuzatishni va yangi iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashni davom ettirishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Ulug'bek Hamdam. Yangi o'zbek she'riyati: ilmiy maqolalar. - Toshkent: Adib, 2012.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Yoqubov I. Istiqlol. Adabiyot. Tanqid... - Тошкент: Turonzamin ziyo, 2015.
4. F. Abduvohidov. Dramaturgiya asoslari. T.; 2019. 122 b.